

ZIYOVUDDINXON NURIDDINOV

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI JORIY ETISH VA SAMARADORLIGINI TA'MINLASH

Annotatsiya: . Mazkur tadqiqot ishimizda Bank tizimida zamonaviy xizmatlar va hozirgi kundagi transformatsiya jarayonini amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, transformatsiya jarayonini amalga oshirish zaruratida katta o'rin tutgan bank tizimi xizmatlarini transformatsiya qilish tizimlarini yuzaga kelishining asosiy tashqi omillari haqida tushuncha berilgan, bank tizimi transformatsiyasiga O'zbekiston tijorat banklarida o'tish zarurati yoritilgan. Bundan tashqari, bank tizimini transformatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Transformatsiya, raqamli bank, bank xizmatlari, onlayn bank, HR& korporativ madaniyat, mobil texnologiyalar, raqamli ofis, mobil banking.

IMPLEMENTATION AND ENSURING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE PRODUCTS IN COMMERCIAL BANKS

Abstract: In this research, information is given about modern services in the banking system and the need to implement the current transformation process. Also, an understanding of the main external factors of the emergence of banking system services transformation systems, which played an important role in the need for the implementation of the transformation process, was explained, the need to transition to the transformation of the banking system in commercial banks of Uzbekistan was highlighted. In addition, conclusions and suggestions on the transformation and development of the banking system are given.

Keywords: Transformation, digital banking, banking services, online banking, HR& corporate culture, mobile technologies, digital office, mobile banking.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bank-moliya sektorining barcha jabhalarida jadal o'z o'rnini egallamoqda. Bank-moliya sektorining rivojlanishining zamonaviy tendensiyalaridan biri sifatida raqamlashtirish jarayoni milliy iqtisodiyotning rivojlanish chegaralarini belgilovchi indikatorga aylanmoqda. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni barcha tarmoqlar va sohalarda jadal qamrab olishga O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston — 2030»[1] strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining ijrosi doirasida tijorat banklarida “masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish, omonatlar va hisob raqamlarni ochishni o‘z ichiga olgan keng turdagi onlayn xizmatlar ko‘rsatishni ta‘minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi” ni yakunlash rejalashtirilgan.

Mazkur strategiyani yillar mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida bank sektoriga alohida rol belgilangan bo‘lib, tijorat banklari o‘z xizmatlarining mijozlarda taqdim etishda yangi innovatsion yechimlarni ifoda etgan raqamli xizmatlarni taklif etishlari lozim. Hozirgi kunda respublika bank-moliya sektorining raqamli transformatsiyalashuvi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamlashtirish uchun tayanch tarmoq sifatida e‘tirof qilinmoqda. Tabiiyki, zamonaviy sharoitlarda respublikamiz tijorat banklarini raqamli texnologiyalarni qamrab olishi mamlakat iqtisodiyotini taraqqiyotida asosiy yo‘nalishlardan hisoblanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, bankning mijozlari bilan o‘zaro munosabatlarida ham raqamli bank tushunchasi tobora dolzarblik kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi

M. Porter va G. Bond[2] innovatsiyalarni ko‘tariluvchi (yuqorida) va pasayib boruvchi (pastki oqim) ga bo‘lishni taklif qiladilar. Birinchisi ilmiy tadqiqotlar bilan, ikkinchisi tijoratlashtirish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Shunga o‘xshash tasnifni D.Spenser bergan bo‘lib, innovatsiyalarni ularning manbalariga ko‘ra ajratib ko‘rsatadi: bilimdan kelib chiqadigan (bilimga asoslangan) va foydalanishga asoslangan (foydalanishga asoslangan).

Innovatsiyalarning asosiy sababi "texnologik turtki" bo‘lishi mumkin. Ushbu rag‘batlantirishlarning qaysi biri yetakchi ekanligiga ko‘ra, "taklif innovatsiyalari" va "talab innovatsiyalari" ajralib turadi. K.Friman, N.Rozenberg, R.Nelson, A.Filips[3] va boshqalar ilmiy-texnikaviy shartlarni boshlang‘ich nuqta deb hisoblaydilar. J. Shmukler, G. Mensh, E. Vonhippel[4] va boshqalar talabni hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar.

Innovatsiya nazariyasining asoslarini 20-asrning 30-yillarida J. Shumpeter[5] yaratgan. U “innovatsiya” termini ilmiy adabiyotda, iqtisodda qo‘llagan olim hisoblanadi. U innovatsiyani iqtisodiy sub’ektlarning o‘z faoliyati davomida turli xil resurslarning nostandart birikmalarini tanlashi va biznesni jalb qilgan holda innovatsiyaga aylanishi deb ta’riflagan. U innovatsiyani texnologiya va menejmentdagi o‘zgarish sifatida ko‘rib, innovatsion jarayonda tadbirkorning o‘rnini alohida ta’kidladi. J. Styuart Mill innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishni tahlil qildi. N.Kondratiev esa innovatsiyalarning iqtisodiy

taraqqiyotdagi oʻrni haqida fikr yuritgan.

Tadqiqot metodologiyasi


Tadqiqotda ilmiy bilish, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez usullari qoʻllanilgan hamda ishning mazmunini ochib berishga xizmat qilgan.

Tahlil va natijalar

Oʻz navbatida, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi banklar va bank xizmatidan foydalanuvchilar oʻrtasidagi masofani sezilarli darajada kamaytirishi, banklararo raqobatni kuchaytirishi va shu sababli bank xizmatlarining miqdoriy va sifat jihatidan rivojlanishiga hissa qoʻshib kelmoqda.

Zamonaviy global dunyoning oʻziga xos xususiyatlaridan biri bu raqamli texnologiyalarning hayotga kirib kelishi hisoblanadi. Ushbu jarayonga esa mikroelektronika, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalarning taraqqiyot darajasi yildan-yilga ortib, anʼanaviy koʻrinishdagi banklar oʻrnini raqamli banklar, shuningdek, bir turdagi bank xizmatlari oʻrnini masofadan boshqariluvchi va raqamli bank xizmatlari egallamoqda. Raqamli banklar anʼanaviy banklarni havfsizlik muammolarni yechish va toʻlovlarni amalga oshirishning real vaqt rejimida kechishi kabi asosiy mezonlar boʻyicha orqada qoldirdi. “Raqamli bank” tizimi jarayonlarning yuqori darajada avtomatlashuvi, xizmatlarning veb-saytlarga asoslanishi, institutlararo bank mahsulotlarini yetkazib berishni taʼminlovchi dasturiy interfeys ilovalarining (API) foydalanilishi, mijozlarga moliyaviy axborotga kompyuter, mobil telefon va bankomatlar orqali bogʻlanish imkoniyatining mavjudligi kabilarga acoslanadi.


Banklarning mobil ilova dasturlarida jismoniy shaxslarning masofadan turib onlayn tarzda amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 58,1 trln. soʻmga yetdi. Bunda, mobil ilova dasturlari orqali amalga oshirilgan onlayn depozitlar – 15,8 trln.soʻm, konversiya amaliyotlari – 7,8 trln.soʻm, onlayn mikroqarzlar – 3,6 trln.soʻm, kreditlarni soʻndirish hajmi – 2,3 trln.soʻmni tashkil etdi.



1-Rasm. O‘zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni

Manba: WWW.cbu.uz ma’lumotari asosida muallif tomondan ishlab chiqilgan

O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyatini tubdan takomillashtirish, aholi va biznes bilan to‘laqonli o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, zamonaviy bank xizmatlarini ommaviy joriy etish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Natijada zamonaviy texnologiyalar – internet va mobil banking kabi bank mijozlari uchun qulay bo‘lgan zamonaviy bank xizmatlar texnologiyalaridan foydalanish kengayib bormoqda. Bugungi kunda raqamli moliyaviy xizmatlarni yo‘lga qo‘yish mamlakat bank-moliya tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishiga aylandi.




2-Rasm. O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatilgan to‘lov terminallari soni

Manba: WWW.cbu.uz ma'lumotari asosida muallif tomondan ishlab chiqilgan

Raqamli moliyaviy texnologiyalardan foydalanish davlat, to'lov xizmatlari yetkazib beruvchilari va mijozlar o'rtasida faol hamkorlik qilish imkoniyatini maqbullashtiradi. Mijozlar talab va ehtiyojlarining doimiy tahlili banklar tomonidan xizmat ko'rsatishning yangi usullari joriy etilishiga, yangi jozibador mahsulotlarning yaratilishiga olib keladi. Shuni ta'kidlash lozimki, pandemiya raqamli moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Karantin boshlangunga qadar aholi bankka kelib, muammoni «joyida» hal qilishni ma'qul ko'rgan holda zamonaviy bankingga kamroq qiziqapdi.


Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
1 yanvar holatiga



3-Rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni

Manba: WWW.cbu.uz ma'lumotari asosida muallif tomondan ishlab chiqilgan

Ayniqsa, chekka hududlarda bankka murojaat qilish va xizmatlardan foydalanish qiyin edi. Raqamli moliyaviy xizmatlar banklar bo'limlarini ochish norentabel bo'lgan olis va aholisi kam hududlardagi jismoniy va yuridik shaxslarni samarali qamrab olish imkonini berdi. Raqamli o'zgarishlar orqali banklarning biznes modellari maqbullashtirilmoqda, bank va to'lov segmenti – zamonaviy bank xizmatlaridan tortib to moliyaviy operatsiyalar sohasidagi o'zgarishlargacha rivojlanmoqda.



4-rasm. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar

Manba: WWW.nbu.uz ma'lumotari asosida muallif tomondan ishlab chiqilgan


Bank tizimi ham zamon talablariga muvofiq axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilishni davom ettirmoqda va shu tariqa ko'plab bank xizmatlari avtomatlashtirilmoqda. Endi deyarli barcha bank xizmatlarini mobil telefon yoki maxsus qurilmalar yordamida bir lahzada olish mumkin.

"O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ o'z faoliyatini 30 yil davomida amalga oshirib, O'zbekistonning eng yirik banklaridan biriga aylandi. Ushbu moliya instituti faoliyatining barqarorligi "Standard & Poor's", "MOODY'S", "Fitch" kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari baholari bilan tasdiqlaniladi. 2022 yil 29 dekabr kuni "Standard & Poor's" agentligi O'zmilliybankka "Barqaror" prognozi bilan BB-/B darajasida kredit reytingini tasdiqladi. 2023 yil 31 yanvar kuni "MOODY'S" agentligi O'zmilliybankiga "Ba3" darajada milliy valyutada uzoq muddatli va "Ba3" darajada xorijiy valyutada qisqa muddatli reytinglarini taqdim etdi. Depozitlar reytingi bo'yicha prognoz "Barqaror" bo'lib, bu yaqin 12 oy davomida O'zmilliybankning barqaror bozor pozitsiyasini va moliyaviy ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi.

O'z navbatida, Fitch Ratings agentligi 2022 yil 13 sentabr kuni emitent defolti bo'yicha O'zmilliybankka "Barqaror" prognozi bilan «BB-» uzoq muddatli reyting va "b" qisqa muddatli reytinglarni tasdiqladi. "Barqaror" prognozi suveren reyting bo'yicha prognozni aks ettiradi.

Zamonaviy bank xizmatlarini joriy qilinishi hisobiga "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" Ajga sof foydasini oshirish

bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilihs evaziga yillar kesimida bank sof foydasi sezilarli ko'tarilgan hamda bank strategiyasida bank sof foydasini 3.8 trln so'mga yetkazish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan.



5-rasm. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ sof foyda ko'rsatkichlari (2024-2025 yillar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari bank strategiyasidan olingan)

Manba: WWW.cbu.uz ma'lumotari asosida muallif tomondan ishlab chiqilgan

Markaziy bank tomonidan milliy to'lov tizimini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar ommaborligini oshirish yo'nalishidagi ishlar doirasida bank biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmatlarni raqamli kanallar orqali ko'rsatilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa

Xususan, bank hisob varaqlarini masofadan boshqarish xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 1,4 barobarga oshib, 2022 yilning 1 yanvar holatiga 20,2 mln.ga yetdi. Bunda, foydalanuvchilarning 974,1 mingtasini tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etgan bo'lsa, jismoniy shaxslar soni esa 19,3 mln. taga teng bo'ldi. Tadbirkorlik sub'ektlarining raqamli xizmatlardan foydalanishining ortib borayotganligi hisobiga 2021 yilda ular tomonidan jami amalga oshirilgan (761,8 trln. so'mlik) to'lov torshiriqnomalarining qariyb 83 foizi (629,8 trln. so'mlik) bankka tashrif buyurmagan holda masofadan turib amalga oshirilgan.

Markaziy bank tomonidan milliy to'lov tizimini rivojlantirish va moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish yo'nalishidagi ishlar doirasida bank biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va xizmatlarni raqamli kanallar orqali ko'rsatilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bank hisob varaqlarini masofadan boshqarish xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 1,4 barobarga oshib,

2022 yilning 1 yanvar holatiga 20,2 mln.ga yetdi. Bunda, foydalanuvchilarning 974,1 mingtasini tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etgan bo'lsa, jismoniy shaxslar soni esa 19,3 mln. taga teng bo'ldi. Tadbirkorlik sub'ektlarining raqamli xizmatlardan foydalanishining ortib borayotganligi hisobiga 2021 yilda ular tomonidan jami amalga oshirilgan (761,8 trln. so'mlik) to'lov torshiriqnomalarining qariyb 83 foizi (629,8 trln. so'mlik) bankka tashrif buyurmagan holda masofadan turib amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son qarori. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>;
2. Kouri, P. J., & Porter, M. G. (1974). International capital flows and portfolio equilibrium. *Journal of Political Economy*, 82(3), 443-467.
3. Assaf A., Berger A.N. and others, Does efficiency help banks survive and thrive during financial crises?, *Journal of Banking and Finance*, 106, (2019), pp. 445–470;
4. Aannerud, S., & Friman, K. (2024). The Influence of Inflation Targeting on Economic Growth: A Critical Analysis on Developed Countries.
5. Shumpeter, J. A. (1961). *The Theory of Economic Development: An Inquiry Into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle*. Transl. by Redvers Opie. Oxford University Press.
6. WWW.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.